

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETINING
«YOSH OLIMLAR KENGASHI»
NIZOMI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining (keyingi o'rinlarda – TDIU) huzuridagi “Yosh olimlar KENGASHi” yosh olimlarning jamoat tashkiloti bo'lib, ilmiy tadqiqot va ijod bilan shug'ullanuvchi yoshlarni birlashtirish, TDIUda yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tizimli asosda yo'naltirish, mavjud ilmiy maktablar an'alarini davom ettirish hamda yangi ilmiy maktablarni shakllantirishga zamin yaratish, yosh olimlar, kasbiy va ijtimoiy-maishiy miqyosdagi ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, TDIUda fundamental, amaliy va innovastion tadqiqotlarni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish va shu tarzda ilmiy kadrlar tayyorlashning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda yosh olimlar ijodiy yutuqlarini targ'ib qilishda ko'maklashish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

2. TDIU “Yosh olimlar KENGASHi” (keyingi o'rinlarda - KENGASH) 35 yoshgacha bo'lgan olimlar va mutaxassislar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil-izlanuvchilardan iborat tarkibda shakllangan (keyinchalik - yosh olimlar) jamoat tashkiloti hisoblanadi.

3. KENGASH barcha imkoniyatlarini qo'llagan holda yosh olimlar ijodiy faolligining rivojlanishiga, ularning iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha kamol topishiga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim ilmiy va amaliy muammolarning ilmiy jihatdan echimini topishga ko'maklashadi. Yosh tadqiqotchilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini to'liq namoyon etishlarida yordamlashadi va sharoit yaratadi.

4. KENGASH faoliyati yosh olimlar jamoat tashkilotining asosiy yo'nalishlari va faoliyat shaklini belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi, “Ta'lim to'grisida”gi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari, qarorlari va ko'rsatmalari, hamda mazkur Nizomga asosan olib boriladi.

5. KENGASH o'z faoliyatida TDIU ilmiy ishlar bo'yicha prorektorga bo'ysunadi va hisobot beradi.

II. KENGASHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. KENGASHning asosiy maqsadi - oliy ta'lim tizimida yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tizimli asosda yunaltirish, mavjud ilmiy maktablar an'analarini davom ettirish hamda yangi ilmiy maktablarni shakllantirishga zamin yaratish, yosh olimlar kasbiy va ijtimoiy-maishiy miqyosdagi ilmiy- ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrastiyasini izchil rivojlantirish asosida ilmiy tadqiqotlar bilan muntazam shug'ullanuvchi yoshlarni birlashtirish, ularning mutaxassisliklari va ijtimoiy sohalarga oid qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash - shu tarzda yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning barqaror rivojlanishini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

2. Yosh olimlarni mamlakat ilm-fani uchun dolzarb, milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga, xalqimiz ma'naviyati va madaniyatining yuksalishiga ko'maklashuvchi fundamental, amaliy va innovastion yo'nalishlardagi ilmiy faoliyatga jalb qilish.

3. Yosh olimlar faoliyati orqali O'zbekiston Respublikasi fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tashkil qilish va olib borishda ishtirok etish hamda ustoz-shogird tizimini shakllantirish.

4. Oliy ta'lim muassasalari va Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot muassasalari hamkorligini tajriba almashish maqsadida rivojlantirish va mustahkamlash, yosh olimlarning ijodiy faolligini kuchaytirish, ilmiy anjumanlar, seminarlar o'tkazishga ko'maklashish.

5. Yosh olimlarning ilmiy tadqiqot ishi natijalarini umumlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish, uning yangi shakllarini izlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TDIU faoliyatiga tatbiiq etishda barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda tashabbuskorlik ko'rsatish.

6. Ilmiy anjumanlarda ishtirok etish uchun yosh olimlarning ilmiy safarlarini rejalashtirish va har tomonlama yordam ko'rsatish TDIU rektorati tavsiyalari asosida.

7. Yosh olimlarning etakchi ilmiy markazlar va OTMlardagi xorijiy hamkasblari bilan o'rnatilgan tartibda faol xalqaro hamkorligini tashkil etish, xorijiy davlatlarning nufuzli ilmiy markaz va muassasalari bilan ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maktablar, anjumanlar, seminarlar va boshqa ilmiy tadbirlarda ishtirok etishga, xorijiy mamlakatlarda maqolalar e'lon qilishga ko'maklashish.

8. Yosh olimlar ilmiy ishlari tanlovini muntazam tashkil etish va o'tkazish, davlat grantlari, xorijiy mamlakatlar grantlari va xo'jalik shartnomalarida yosh olimlar ishtirokini ta'minlash, ular ishlarini mukofotlarga taqdim etish, eng yaxshi va iqtisodiyotda ustuvor hisoblangan ilmiy tadqiqot natijalarini nashr etish va ommalashtirishga ko'maklashish.

9. O'z faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan yosh olimlarni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar berish.

10. Noyob jihozlarda tadqiqot ishlarini o'tkazishga amaliy yordam ko'rsatish.

11. Yosh olimlarning faoliyatini qo'llab - quvvatlovchi grant ajratuvchi tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish va ularni tarqatish;

III. KENGASHNING BOSHQARUV ORGANLARI VA ULARNING VAKOLATLARI

1. KENGASHi tarkibi 25 nafardan iborat bo'lib, TDIU rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

2. KENGASH raisi va kotibi TDIUning yosh olimlardan iborat a'zolaridan, jamoatchilik asosida KENGASHi yig'ilishida 2 yilgacha muddatga saylanadi.

3. KENGASH kamida oyda ikki marta yig'iladi. KENGASH qarori qatnashayotganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan hisoblanadi. Qaror ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ovoz berish KENGASH a'zolarining ishtiroki 2/3 qismidan kam bo'lmagan holda haqiqiy hisoblanadi.

4. KENGASH yig'ilishlari orasidagi davrda uning faoliyat yo'nalishiga doir tezkor masalalarni KENGASH kotibiyati tarkibi (rais, uning muovnlari va kotibdan tashkil topgan) hal qiladi.

5. KENGASH raisi:

-KENGASHning rasmiy vakili hisoblanadi, o'zining vakolati doirasida KENGASHning barcha ishlarini tashkil etadi va boshqaradi, KENGASHning boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiradi, KENGASH faoliyatiga taalluqli hujjatlarga imzo chekadi;

-KENGASH yig'ilishlarining o'tkazilish vaqti va kun tartibi to'g'risida qaror qabul qiladi;

-KENGASH nomidan oliy ta'lim muassasalari yosh olimlari talab va istaklarini himoya qiladi;

-KENGASH raisi kamida bir yilda qilingan ishlar yuzasidan KENGASH yig'ilishida hisobot beradi;

-Belgilangan maqsad va vazifalar, ish rejasining amalga oshirilishi - KENGASHning faoliyati yuzasidan kalendar yilda bir marta TDIU Ilmiy KENGASHida hisobot beradi.

6. Yillik hisobot natijasiga asosan KENGASH uning vakolatini to'xtatish va yangi rais saylash huquqiga ega.

7. Rais vakolatini to'xtatish to'g'risidagi qaror yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi, agarda a'zolarining kamida uchdan bir qismi faoliyatni to'xtatish

taklifi bilan chiqib, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bergan hollarda.

8. KENGASH raisi xizmat safari, betobligi, ta'tildaligi vaqtida uning vazifasini KENGASH raisi o'rinbosari bajaradi.

9. TDIUning Yosh olimlar KENGASHi raisi va kotibi TDIUning rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

IV. KENGASH FAOLIYATI

KENGASH o'zining faoliyatida:

- joriy yil uchun o'zining ish rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ularni bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni tinglaydi. KENGASH tadbirlari, ilmiy anjumanlari, seminarlari rejalarini, zarur hollarda joriy yil uchun o'zining Tashkiliy qo'mitasi tarkibini tasdiqlaydi, tadbirlarga tayyorgarlik va o'tkazish jarayoni to'g'risidagi axborotlarni tinglaydi.

- TDIUning ilmiy KENGASHiga ilmiy-tadqiqot ishida muhim yutuqlarga erishgan va ijtimoiy faol yosh olimlardan rahbar kadrlar zahirasi bo'yicha takliflar kiritadi;

- TDIUning Yosh olimlar KENGASHi o'z faoliyatini yillik ish rejasi asosida, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganish va echish bo'yicha ish olib boradi;

- Fakultetlardagi Yosh olimlar KENGASH a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- "Yosh olimlar KENGASHi" yosh olimlarning jamoat tashkiloti sifatida turli ilmiy, iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi;

- Yosh olimlar ilmiy ishlari tanlovini tashkil etadi va o'tkazadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga, TDIUning rahbariyatiga yo'nalishlar bo'yicha yosh olimlarni xorijga ilmiy tajriba va malaka oshirishiga va xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etishga yuborish to'g'risida takliflar kiritadi;

- KENGASH yig'ilishlarida xorijiy markazlar va muassasalarda stajirovka o'tagan yosh mutaxassislarning axborotini tinglaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga hamda TDIU rahbariyatiga yosh olimlarning eng yaxshi ishlarini taqdirlash va nashr etish bo'yicha takliflar kiritadi;

- o'z faoliyati va oliy ta'lim muassasalari yosh olimlarining turli yutuqlari va erishayotgan natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ommalashtiradi.

TDIU Ilmiy KENGASHiga quyidagi masalalar bo'yicha takliflar kiritadi:

- katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va yosh mutaxassislarning ilmiy ishlaridagi yuqori ko'rsatkichlari uchun taqdirlash to'g'risida;

-katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar va boshqa yosh olimlarga moddiy yordam ko'rsatish to'g'risida;

-katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar va yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida;

-katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar va yosh olimlarning ilmiy ishlardagi faolligini joriy monitoringini o'tkazadi;

-o'zining ilmiy ishini muvaffaqiyatli tugatgan va dissertastiyasini himoya qilgan yosh olimlarni ish o'rni bilan ta'minlash to'g'risida universitet rahbariyatiga va tegishli muassasalarga tavsiyalar beradi.

V. KENGASH A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1. KENGASH a'zosi huquqlari:

-KENGASH a'zolari teng huquq va MAJBURIYATga egadirlar va ushbu huquq va MAJBURIYATlardan teng huquqlilik asosida foydalanadilar.

-KENGASH yig'ilishida qatnashish, KENGASH faoliyatiga oid asoslangan takliflarni vazirlikka kiritish;

2. KENGASH a'zosining MAJBURIYATI:

-KENGASH faoliyatiga tegishli qaror, MAJBURIYAT va topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarish nazarat va ijro tizimlari kafedralar mudiri tomonidan ta'minlanadi;

- Ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga olgan KENGASH faoliyatiga taalluqli bo'lgan topshirik va MAJBURIYATlarni vijdonan, faol va ijodiy bajarish;

3. KENGASHga a'zolik quyidagi hollarda to'xtatiladi:

-yosh olim ta'lim muassasidan ishdan bo'shaganda;

-KENGASH yig'ilishining tegishli qaroriga ko'ra;

-o'z arizasiga ko'ra.

VI. KENGASH MAJBURIYATLARI

1. Katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchi va yosh olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va rejalashtirishda ko'maklashish, ularga ilmiy-tadqiqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli sharoit yaratishda yordam ko'rsatish, ularning manfaatlarini vakolat doirasida himoya qilish.

2. TDIU rahbariyatini katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchi yosh olimlar va mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi muammolari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish hamda ushbu muammoning echimi to'g'risida rahbariyatga takliflar kiritish.

3. Katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchi va yosh olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga joriy qilish buyicha ularga ko'maklashish va bu borada tegishli takliflarni tayyorlash.

VII. KENGASHNING ISH TARTIBI VA HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH

1. KENGASH o'z ishini KENGASH yig'ilishida qabul qilingan va KENGASH raisi

tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga binoan amalga oshiradi.

2. KENGASHning majlislari, yig'ilishlari va boshqa tadbirlari KENGASH raisi va kotibi tomonidan imzolangan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

3. KENGASH hujjatlarini rasmiylashtirishni KENGASH kotibi amalga oshiradi.

4. Qabul qilingan qarorlar bajarilishining nazorati KENGASH raisi tomonidan amalga oshiriladi.

VIII. KENGASH NIZOMIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar KENGASH tomonidan kiritiladi va KENGASH a'zolarining 2/3 qismi ishtirok etgan umumiy yig'ilishda ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Umumiy yig'ilishda qatnashayotgan KENGASH a'zolarining 2/3 qismi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni yoqlab ovoz berganda Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilingan hisoblanadi.

IX. YAKUNIY HOLATLAR

KENGASH faoliyatining qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TDIU rahbariyati qaroriga (buyrug'iga) muvofiq amalga oshiriladi.